

M. AMINOVA, M. RO'ZIQULOVA

GLOBALLASHUV ASOSLARI



TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

M. AMINOVA, M. RO‘ZIQULOVA

**GLOBALLASHUV
ASOSLARI**

O‘quv qo‘llanma

TOSHKENT – 2016

UO‘K: 316.32 (075)

KBK 66.0 (5Ÿ)

A-59

A-59 M. Aminova, M. Ro‘ziqulova. Globallashuv asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 184 bet.

ISBN 978–9943–4679–3–4

Ushbu o‘quv qo‘llanmada hozirgi globallashuv davri, asosiy jarayonlari va uni mamlakatimiz hayotida aks etayotganligi yangi ilmiy dalillar asosida ko‘rsatib berilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma ijtimoiy fanlar o‘qituvchilari va talabalari uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 316.32 (075)

KBK 66.0 (5Ÿ)

Taqrizchilar:

N. Erkaboyeva – p.f.d., dotsent;

R. Shukurov – f.f.n., dotsent.

Ushbu o‘quv qo‘llanma QDPI o‘quv-uslubiy Kengashining 2016-yil 23-martdagi 7-son qarori asosida nashr etildi.

ISBN 978–9943–4679–3–4

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

SO‘Z BOSHI

XXI asr dunyo miqyosidagi global jarayonlarni mohiyatini chuqur anglash, ularning sabablarini tahlil qila olish va ularning va oqibatlarini oldinda ko‘ra bilishni talab qiladi. Chunki globallashuv hodisalari jamiyat hayotining barcha sohasiga kirib kelib, yer yuzidagi barcha davlatlar hayotida aks etmoqda. Dunyo fan va texnika taraqqiyoti, global axborot tizimi va uning tezligini muttasil ortib borayotganligi, dunyo miqyosidagi hodisalarga to‘g‘ri baho berishni talab qilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy talaba globallashuv fenomeni obyektiv real jarayon sifatida mavjud bo‘lishini tushunmasa, bugungi taraqqiyot tezlashuvi va axborot xavfi nimaligini tushunib etolmaydi. Mazkur o‘quv qo‘llanma o‘zida globallashuv jarayonining barcha ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilib bergan. Avtorlar falsafa fanlari nomzodi M. Aminova va o‘qituvchi M. Ro‘ziqulova tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov asrlari, nutq va ma‘ruzalari, o‘zbek olimlarining globallashuv haqidagi ilmiy asarlari va maqolalari, hamda xorij avtorlarining ilmiy fikrlarini mujassamlashtirgan holda talabalar uchun tushunarli, qiziqarli, zamonaviy dalillar va materiallar asosida o‘quv qo‘llanma yozilgan. Mazkur o‘quv qo‘llanma sodda, tushunarli tilda, har bir ilmiy terminlar izohlanib, mantiqiy izchillik bilan yozilganligi uchun talabada fanni osonlik bilan o‘zlashtirishi va aniq fikrlar paydo bo‘lishi uchun xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, “Globallashuv asoslari” fanidan yaratilgan mazkur o‘quv qo‘llanma, nafaqat Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi yo‘nalishi talabalari uchun ishlab chiqilgan Davlat ta‘lim standarti talablariga mos keladi, balki barcha ijtimoiy fanlarni o‘qitilishida foydalanish mumkin bo‘lgan katta ma‘lumotlar manbai sifatida ham xizmat qiladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmadan, ta‘limning barcha bosqichida faoliyat yuritayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qituvchilari, o‘quvchi va talabalar, shuningdek, ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot ishlarida keng foydalanish mumkin.

p.f.d., dotsent Erkabaeva N.Sh;
f.f.n., dotsent Shukurov R.

KIRISH

Bugungi kunda zamonamizning global muammolari deb ataluvchi muammolar haqida eshitmagan odamni uchratish qiyin. Bu muammolarga demografik, sogʻliqni saqlash, taʼlim, rivojlanish, energetik, hom ashyo muammolari, urush va tinchlik muammosi, ekologiya va boshqalar kiradi. Bu haqda prezidentimiz Islom Karimov BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bagʻishlangan yalpi majlisida ham oʻzining quyidagi fikrlarini bildirgan “Jahonning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar saqlanib qolayotgani, davlatlararo, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasida taʼkidlanganidek, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar oʻlimi, epidemiyalar va insoniyatning boshqa muammolariga qarshi kurash borasidagi eng jiddiy toʻsiqlar boʻlib qolmoqda.”¹

Albatta, ushbu muammolar ilgari ham mavjud edi, lekin faqat XX asrdagina ular global muammolarga aylandi. Insoniyat tarixida mavjud boʻlgan oldingi shunga oʻhshash muammolardan ular shunisi bilan farq qiladiki, mazkur muammolar planetar harakterga ega. XX arsning 40-yillaridayoq K.Yaspers shunday deb yozgan: «Barcha mavjud muammolar dunyo muammolari boʻlib qoldi, vaziyat - umum insoniyatning vaziyatiga aylandi»². Bugungi kunda dunyoda boʻlayotgan har bir hodisa, u ekologik tanglik boʻladimi, urushmi, ochlikmi, energetik va boshqa resurslarning kamayib ketishimi, madaniyatdagi tanglikmi yoki demografik tanglikmi bundan qatʼiy nazar ular endi lokal, mahalliy, milliy muammolar boʻlib qolmay planeta miqyosidagi global hususiyat kasb etmoqda.

Global muammolar - bu shunday muammolarki, ular butun insoniyatning manfaatlariga dahl qiladi, uning kelajagiga havf soladi hamda ular butun xalqaro hamjamiyatning ishtiroki bilangina hal etilishi mumkin.

Mazkur oʻquv qoʻllanma talabalarda XXI asrda dunyo miqyosida yuz berayotgan voqealarning mohiyatini chuqur tushunib yetish va ayni paytda bu voqea hodisalarga nisbatan oʻz mustaqil fikri paydo boʻlishi hamda oʻzining munosabatini bildirish imkoniyatlarini yaratadi. Oʻquv qoʻllanmada xorij va oʻzbek olimlarining gloallashuvga oid asarlari va unda keltirilgan xulosalar asosida globallashuv hodisasining jamiyat hayotini barcha sohalariga taʼsiri va uni oqibatlariga toʻxtalib oʻtilgan.

¹ Karimov I. Eng asosiy mezon -hayot haqiqatini aks ettirishdir. T., “Oʻzbekiston” 2009. B. 63

² Ясперс К. Смысл и значение истории. М., «Наука», 1994. С. 141

Globalashuv jarayonini mamlakatimiz hayotiga ta'siri va O'zbekistonni integratsiya jarayoniga qo'shib borishida, milliy manfaatlar uyg'unligi kitobda ishonarli dalillar bilan berilgan. O'quv qo'llanmada globalashuvning jahon sivilizatsiyasiga va mamlakatimiz hayotiga ijobiy ta'siri va bu jarayonda O'zbekistonning erishgan yutuqlari ko'rsatib o'tilgan. Ayni paytda globalashuv oqibatida vujudga kelayotgan salbiy hodisalar va aynan mamlakatimiz hayotiga tahdid solayotgan global hodisalar ham aniq dalillar asosida yoritilgan. Mazkur o'quv qo'llanma 5111600-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi DTS talablari va Oliy o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2012-yilda yaratilgan "Globalashuv asoslari" fani bo'yicha yaratilgan Namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqib yozilgan.

Bizning fikrimizcha, mazkur o'quv qo'llanma talaba yoshlarni globalashuv jarayonining voqea va hodisalari mohiyat va mazmuni bilan tanishtirish, ularga bu voqealarga teran ko'z bilan qarash, ularning maqsadlari haqida aniq fikrga ega bo'lish hamda ularni to'g'ri tahlil qilish imkoniyatlarini yaratadi.

I BOB. GLOBALLASHUV TUSHUNCHASINING PAYDO BO‘LISHI VA UNING MUAMMOLARI

XX asr oxiriga kelib, dunyo iqtisodi, milliy iqtisod va siyosatning majmuasi sifatida integratsiyalashib, yangi sifat va yangi bosqichga, global bosqichga o‘tdi. Bu bosqich, dunyoning muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini qamrab olib, iqtisodiy rivojlanish va modernizatsiyalashga sabab bo‘ldi. Ayni paytda globallashuv dunyo iqtisodida yangicha qarama-qarshiliklar va muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlari turli darajada globallashuv jarayoni bilan bog‘lanib ketgan, shu narsa aniqki, hech bir mamlakat bu jarayondan ajralib qololmaydi.

Globallashuv (lot. globus- shar, fr. Global-umumiy)- obyektiv jarayon bo‘lib, butun dunyo mamlakatlari o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik va o‘zaro hamkorlikning kengayib borishi natijasida paydo bo‘lgan, yangi xalqaro tashkilotlar hamda ular faoliyatining taraqqiy etib borishi oqibatida vujudga kelgan xalqaro hamjamiyatning paydo bo‘lishidir.

Globallashuv tushunchasi serqirra tushunchadir. Keng ma’noda - bu milliy va hududiy muammolarni butun jahon miqyosidagi yangi xo‘jalik, ijtimoiy iqtisodiy va tabiiy-biologik global muhitga ta’sir etib borishi. Tor ma’noda - iqtisodiy va xo‘jalik tizimining modifikatsiyasi (o‘zgarishi) oqibatida yagona, bir butun umumjahon geoiqtisodiy jarayonining paydo bo‘lishidir. Globallashuvning aniq sohalari o‘z ichiga yangi texnologiyalar taraqqiyotini, yangi ahloq va odob normalarini (global etika), shuningdek, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikka yangi tahdidlarni paydo bo‘lishini, ya’ni xalqaro terrorizm, xalqaro jinoyatchilik, ommaviy qirg‘in qurollarining global tarqalishini ham o‘z ichiga oladi. “Globallashuv” tushunchasi, “hozirgi davr global muammolari” tushunchasi bilan bog‘liq, lekin ularni bir xil tushuncha sifatida qabul qilmaslik kerak, chunki birinchi tushunchada global jarayonlar to‘g‘risida, ikkinchi tushunchada esa bu jarayonning oqibatlari haqida fikr yuritiladi.

Globallashuv bir qancha ijtimoiy-gumanitar fanlarning yangi muammolarini o‘z ichiga olgan, o‘z predmeti va metodologiyasi, tushuncha va kategoriyalariga ega bo‘lgan yangi fan “Globalistika” fani paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Mazkur fan “global tahlil”, “global chaqiriq” ,”global memorandum”, “global bozor muhiti”, “yagona dunyo”, “global maydonning kengaytirilgan talqini”, “dunyoning yuksalish nuqtalari”, “dunyo institutsional tizimi”, “neoekonomika”,

“dunyoning transchegaraviy tizimi”, “transmilliy etnoiqtisodiyot” kabi tushunchalarni hal qiladi.

Globallashuvning mohiyati.

So‘nggi yigirma-o‘ttiz-yil ichida insoniyat juda ko‘plab yirik masshtabdagi butun dunyo va davr miqyosida yuz berayotgan, jahon ahamiyatiga molik o‘zgarishlarni guvohi bo‘lmoqda. Dunyo hamjamiyatining geosiyosiy tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar va hozirgi zamon boshqaruv tizimining yangi ijtimoiy-siyosiy shakllarini paydo bo‘lishi, bir tarixiy davrning tugallanib, dunyo taraqqiyotida sifat jihatidan yangi bosqich boshlanganligini ko‘rsatmoqda.

Bu o‘zgarishlar quyidagilarda ko‘rinadi:

Birinchidan, Sobiq Ittifoqning va Sotsialistik hamkorlikning parchalanib ketishi bilan ikki qutubli dunyo, “sovuq urush” muammosi barham topdi.

Ikkinchidan, dunyoning sanoati yuksak rivojlangan joylarida axborot-telekommunikatsiya inqilobi tufayli, industrlashgan jamiyatdan, axborot jamiyatiga o‘tib borildi.

Uchinchidan, shu inqilob bilan mos ravishda, unga asoslangan holda ijtimoiy- siyosiy paradigmlar vujudga keldi.

To‘rtinchidan, dunyoni qamrab olgan yevropotsentristik, ya’ni g‘arb ratsional sivilizatsiyasi o‘rniga, dunyo hamjamiyatini organik birlashtiruvchi va yaxlitlashtiruvchi, bir tomondan, millatlar, madaniyatlar, dinlar va b. plyuralizmiga asoslangan yangi umumjahon sivilizatsiyasi paydo bo‘ldi.

Hozirgi davrning o‘ziga hosligi shundaki, iqtisodiy sohadagi o‘zgarish va yuksalish jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-madaniy va ma’naviy hayotiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Endilikda har bir davlat zamonaviy siyosiy muammolarni hal qilishda, o‘zining avvalgi qat’iy milliy g‘oyaviy-siyosiy an’analari asosida emas, balki hozirgi davrning “aniq foyda keltiruvchi maqsad yo‘ldan borish” usulini tanlab ish olib bormoqdalar. Yuqoridagi hodisalar, jarayonlar globallashuv fenomenlaridir.

Globallashuv mohiyatiga ko‘ra, ijtimoiy aloqa va ijtimoiy institutlarning makon va vaqtdagi munosabatlarini kengayishi va chuqurlashuvi oqibatida, kishilarning kundalik faoliyatiga yer sharining boshqa bir mintaqasida yuz bergan voqealar ham ta’sir etadi, ikkinchidan, aynan bir mamlakatda yuz bergan hodisa, muhim global o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Globallashuvda juda ko‘p ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy va boshqa munosabatlar va aloqalar umumjahon miqyosiga

chiqadi. Ayni paytda, bu jarayonda ayrim davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik darajasi o'sib, davlatlararo aloqadorlik darajasida kengayadi. Globallashuv jarayoniga xos xususiyat, ilg'or mamlakatlardagi texnologik, tashkiliy, xukumat boshqaruvi, huquqiy va boshqa sohadagi munosabatlar keng tarqalishi va muntazam ravishda zamonaviy kommunikatsiyaning ko'plab vositalari hamda yangi informatsion texnologiyalardan foydalanish orqali amalga oshadi.

Globallashuvni zamonaviy shaklini, Evroittifoq misolida ko'rishimiz mumkin, bu yerda ulkan fazoviy chegaralar yuvilib, yagona iqtisodiy, siyosiy makon tashkil etildi va u yuqori darajada rivojlangan global aloqalar oqimi asosida boshqarilmoqda. Bu aloqalar iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarning ko'p sonli korporatsiyalarni yirik investitsiyalarini bir-biriga olib kirishi va kapital harakatining tezlashuvi amalga oshirishda xizmat ko'rsatmoqda.

Dastlab mamlakatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro aloqadorlik Yevropa ekspansiyasi shaklida bordi, keyinchalik G'arbning ta'siri sifatida tushunildi, shuning uchun globallashuv Yevropaga, G'arbgga xos hodisa deb tushunilgan. Hozirda yer yuzining barcha mintaqalarini globallashuv qamrab oldi. Bu jarayonning tezlashuvi, bir tomondan, milliy davlatlarning faoliyatini kengayishi va o'z xalqi oldidagi javobgarligini kuchaytirsam, ikkinchi tomondan, rivojlangan mamlakatlarning talablari asosida erkin harakat qilish imkoniyatlari yo'qligini ya'ni globallashuv talablariga bo'yinsunish lozimligini ko'rsatadi. Tovarlar, kapitallar, odamlar, bilimlar, timsollar, giyohvand moddalar, qurol-yarog' davlatlar chegarasini bemalol bosib o'tib, kirib kelmoqda. Trans milliy aloqalar, itimoiy harakat va munosabatlar insoniyat faoliyatining barcha jabhasiga kirib keldi. Global savdo tizimi, global moliya tizimi, global sanoatning vujudga kelishi, butun dunyoni yagona xo'jalik, bir jamoaga aylanishiga sabab bo'ldi. Shu tariqa milliy davlat chegaralari borgan sari shaffof tus olmoqda.

Shu tariqa globallashuvning mohiyati dunyo bozori masshtabining beqiyos kengayishi, xalqaro aloqalarga xos boshqa jarayonlarning borgan sari ochiqlashuvi, integratsiyalashuvi, xalqaro iqtisod va axborot uchun chegaralarning ahamiyatini qolmasligidan iboratdir. Bu nafaqat tashqi savdoda, balki valyuta va kapital harakatining tezlashuvi, texnologiyalar, axborot va g'oyalar almashinuvi, odamlarning ko'chib yurishida ham ko'rinadi.

Globallashuv hozir shunday keng tus oldiki, har qanday davlat globallashuvni hisobga olgan holdagina, o'zining tashqi siyosatini

mohiyatini, kelajagini va yoʻnalishlarini toʻgʻri belgilashi mumkin. Bu dinamik, borgan sari tezlashib borayotgan taraqqiyot jarayonidir. Shuning uchun globallashuvni yuz berayotgan inqirozlar, ishlab chiqaruvchi kuchlarning oʻziga xos regreslar asosida statik rivojlanish bilan tenglashtirib boʻlmaydi.

Globallashuv yangicha tafakkurni talab qiladi. Yangicha fikrlashning asosida dunyoni bir butunlik sifatida tushunib, oʻzaro hamkorlik va havfsizlik masalalarini, umuminsoniy muammolarni hal qilishda doimiy barcha davlatlarni dialog asosida ish olib borishini taqazo etiladi. Hozirgi kunda global hamkorlikka qoʻshilmaydigan, baʼzi davlatlar tufayli, ularning ichki va tashqi ziddiyat va qarama-qarshilikning kuchayib global xavfga aylanishi mumkin. Ayni choqda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning bir necha bor, eng nufuzli xalqaro tashkilot BMT sammitlarida, Afgʻonistonning ichki ziddiyatlari, tolibonlar hatti-harakatining avj olishi, mintaqaviy ziddiyatlardan pirovard oqibatda global ziddiyatlarga aylanishi haqidagi fikrlarini real isbotini topishi, yuqoridagi fikrlarning dalilidir. Shuning uchun ham havfsizlikning taʼminlanishi, serqirrali, keng tarmoqli muhim vazifadir.

Globallashuvning serqirraligi oʻz ichiga, ayrim kishilarning havfsizligidan boshlab, mamlakatlar, hududlar, mintaqalar va butun yer shari tinchligini taʼminlash, shuningdek, turli ziddiyatlar va qarama – qarshilik oldini olish, zarur boʻlganda ularni bartaraf etishda qatnashish, ekotizim barqarorligini saqlash, oziq- ovqat, energiya va xom ashyo taqchilligiga yoʻl qoʻymaslik, yangi texnologiyalarga oʻtish, har qanday sharoitda ham xalqaro institutsional boshqaruv tamoyillariga amal qilish oʻz ichiga oladi. Xavfsizlikning muhim qirralaridan biri, xalqaro miqyosda zoʻravonlik va jinoyatchilikni oldini olishdir.

Lekin globallashuvni hamma mamlakatlarda bir hil darajada boradi deb tushunish notoʻgʻri, chunki, turli mamlakatlar rivojlanishining oʻziga xos yoʻllari va tamoyillari mavjud, bu ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarni, rivojlangan mamlakatlar safiga qoʻshilishida koʻrinadi. Masalan, bizning mamlakatimiz oʻz taraqqiyot yoʻlining asoslarini, oʻzga xos va oʻziga mos milliy model “oʻzbek modeli” orqali amalga oshirdi. XX1 asrga kelib, paydo boʻlgan global iqtisodiyot, bugunda har bir mamlakatlar rivojlanishining barcha sohalariga ham ijobiy, ham salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

3. Globallashuvning xususiyatlari.

Globallashuv asosan quyidagi xususiyatlarga ega:



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/oz/asar/3917> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3917> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3917>